



TILSHUNOSLIKDA SEMIOTIKANING O'RNİ VA AHAMIYATI

Selma Ozan Yücel

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti mustaqil izlanuvchisi,

Oriental universiteti Tillar-2 kafedrası stajyor-o'qituvchisi

Selmaozan702@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-0017-1321>

Annotatsiya. *Ushbu tezis zamonaviy tilshunoslikda semiotikaning o'rni va ahamiyatini yoritadi. Unda semiotika tilni belgilar tizimi sifatida o'rganishi, belgi tushunchasining keng talqini hamda ma'noning turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda shakllanishi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar. *Semiotika, tilshunoslik, belgi, belgilar tizimi, ma'no, reallik, interpretatsiya, kommunikatsiya.*

Abstract. *This thesis highlights the role and significance of semiotics in modern linguistics. It analyzes semiotics as a field that studies language as a system of signs, the broad interpretation of the concept of the sign, and the formation of meaning in various social and cultural contexts.*

Keywords. *Semiotics, linguistics, sign, system of signs, meaning, reality, interpretation, communication.*

Tilshunoslikda semiotika tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki belgilar tizimi sifatida o'rganadigan muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Semiotika (yunoncha *semeion* — belgi) belgilar, ularning ma'nosi va ishlatilish qonuniyatlarini tadqiq etadi. Til esa eng murakkab va mukammal belgilar tizimi sifatida semiotikaning markaziy obyekti hisoblanadi.

Semiotikaning belgi va belgi tizimlarini o'rganishi borasida barcha tadqiqotchilar yakdil fikrga ega, biroq uning fan sifatida qabul qilinishi masalasida turli bahslar mavjud. Charlz Morris semiotikani "belgilar haqidagi fan" deb ta'riflagan bo'lsa⁶⁹, ayrim tadqiqotchilar hali yagona metodologik birlik shakllanmaganligi hamda ko'pchilik tomonidan tan olingan nazariy modellar yoki tajribaviy metodologiyalar mavjud emasligi sababli, uni mustaqil fan sifatida emas, balki fanlararo tadqiqot usuli, ilmiy loyiha yoki hali to'liq shakllanmagan yondashuv sifatida ko'radilar⁷⁰. Chunki semiotika nazariyotchilari hanzgacha uning tadqiqot sohasi va umumiy tamoyillarini belgilash ustida ish olib bormoqdalar.

Semiotikaga nom bergan ilk shaxs ingliz faylasufi John Locke (1632–1704) bo'lgan. Locke o'zining "An Essay Concerning Human Understanding" (1690; "Insonning

⁶⁹Chandler D. Semiotics for Beginners, <http://www.aber.ac.uk/media/Documents/S4B/sem01.html>

⁷⁰ Tahsin Y. "Genel Göstergibilim", Göstergibilim Tartışmaları, Istanbul: Multilingual Yay, 2001. —S.9; Guiraud, Pierre, a.g.e., s.13.





anglash qobiliyati haqida tajriba”) asarida ilk bor “semeiotike” atamasini qo‘llab, uni “belgilar haqidagi ta’limot” (doctrine of signs) sifatida ta’riflagan va semiotikaning fan sifatida uch asosiy tarmoqdan biri bo‘lishi kerakligini ilgari surgan⁷¹.

Locke fikriga ko‘ra, ushbu belgilar haqidagi ta’limotning maqsadi — aqlning narsalarni tushunish yoki o‘z bilimlarini boshqalarga yetkazish uchun foydalanadigan belgilarining tabiatini o‘rganishdan iboratdir.

Lockening ushbu muhim asaridan ta’sirlangan fransuz matematigi J. H. Lambert ham belgilar haqidagi ta’limotning Locke’dan keyingi eng muhim vakillaridan biri hisoblanadi. J. H. Lambert “Semiotika” bo‘limida fikrlar va narsalarning nomlanishi hamda ifodalanishi bilan bog‘liq ta’limotni ishlab chiqadi. U asosan lingvistik belgilarni o‘rganishga e’tibor qaratgan bo‘lsa-da, boshqa belgilar turlarini ham tahlil qiladi. Ular orasida musiqa, xoreografiya, gerb, emblema, marosimlar va boshqalar ham mavjud⁷².

Semiotika, bu ma’noning shakllanish jarayonini hamda uning turli madaniy, ijtimoiy va lingvistik kontekstlarda ifodalanish usullarini tahlil qiluvchi ilmiy yo‘nalishdir. Ushbu yondashuvga ko‘ra, voqelik “o‘z-o‘zidan mavjud” va “obyektiv” hodisa sifatida emas, balki inson tafakkuri, talqini va turli belgilar tizimlari orqali shakllanadigan konstrukt sifatida qaraladi. Shuning uchun semiotika “reallik” tushunchasining inson ongidan va interpretatsiyasidan mustaqil emasligini ko‘rsatadi. Chandler bu fikrni quyidagicha ifodalaydi: “Bu bizni reallikni inson talqinidan butunlay mustaqil, o‘z-o‘zidan mavjud narsa sifatida qabul qilishga kamroq moyil qiladi.”⁷³

Semiotikani tashkil etuvchi asosiy tushunchalardan biri bo‘lgan “belgi” (sign) ni tushunmasdan turib, semiotikani anglash mumkin emas. Belgi — “umuman olganda boshqa bir narsaning o‘rnini bosish xususiyatiga ega bo‘lib, o‘zidan tashqari biror narsani ifodalovchi har qanday obyekt, mavjudot yoki hodisa”⁷⁴dir.

Natijada, semiotika faqat lingvistik belgilarni emas, balki tasviriy (representativ) xususiyatga ega bo‘lgan va ma’noli bir butunlikni tashkil etuvchi barcha unsurlarni ham o‘rganadi. U belgilarni subyektiv (o‘ziga xos) belgi turi sifatida tadqiq qiladi, belgilar ma’nosini o‘rganadi, belgilar qo‘llanilishiga e’tibor qaratadi hamda ularning ta’sirini tahlil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chandler, D. *Semiotics: The Basics* (2nd ed.). London and New York: Routledge, 2007. – 326 p.
2. Deely J. *Basics of Semiotics*, Bloomington: Indiana University Press, 1990. – 125 p.

⁷¹ Deely J. *Basics of Semiotics*, Bloomington: Indiana University Press, 1990. –P. 112-113.

⁷² Mehmet R. Göstergebilimin ABC’si, İstanbul: Simavi Yay, 1992, –S.18-19.

⁷³ Chandler, D. *Semiotics: The Basics* (2nd ed.). London and New York: Routledge, 2007. – P.11.

⁷⁴ Vardar B. Açıklamalı Dilbilim Terimleri Sözlüğü, İstanbul: ABC Yay, 1988. – S.111.





3. Mehmet R. Göstergebilimin ABC'si, İstanbul: Simavi Yay, 1992, – 160 s.
4. Tahsin Y. "Genel Göstergebilim", Göstergebilim Tartışmaları, İstanbul: Multilingual Yay, 2001.
5. Guiraud Pierreç., Çev: Yalçın M. Göstergebilim. Ankara: İmge Yay, 1994, – 154 s.
6. Vardar B. Açıklamalı Dilbilim Terimleri Sözlüğü, İstanbul: ABC Yay, 1988. – 310 s.